

**MUQIMIY ASARLARIDA IQTISODIY VA IJTIMOiy HAYOT.****Azimova Umida***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti***Isomitdinov Shohjahon***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Menejment fakulteti, Jahon**iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi**2-bosqich talabasi**shohaisomitdinov@gmail.com***ANNOTATSIYA:**

*Mazkur maqolada Muqimiy ijodida aks etgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolar tahlil qilinadi. Shoirning "Tanobchilar" hamda "Sayohatnoma" asarlari misolida xalq turmushi, iqtisodiy tengsizlik, korrupsiya va amaldorlar zulmi yoritib beriladi. Muqimiyning hajviy uslub orqali jamiyatdagi mavjud muammolarni ochib berishdagi mahorati ko'rsatib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:**

*Muqimiy, hajviyot, Tanobchilar, iqtisodiy hayot, ijtimoiy tengsizlik, korrupsiya, dehqonlar hayoti, Sayohatnoma.*

**АННОТАЦИЯ:**

*В данной статье анализируются социальные и экономические проблемы, отражённые в творчестве Мукими. На примере произведений поэта «Танобчилар» и «Саёхатнома» раскрываются условия жизни народа, экономическое неравенство, коррупция и произвол чиновников. Также показано мастерство Мукими в раскрытии существующих общественных проблем с помощью сатирического стиля.*

**Ключевые слова:**

*Мукими, сатира, Танобчилар, экономическая жизнь, социальное неравенство, коррупция, жизнь крестьян, Саёхатнома.*

**ABSTRACT:**

*This article analyzes the social and economic problems reflected in Muqimiy's works. Using the examples of the poet's works "Tanobchilar" and "Sayohatnoma," it highlights people's living conditions, economic inequality, corruption, and the oppression of officials. It also demonstrates Muqimiy's skill in revealing existing societal issues through a satirical style.*

**Keywords:**

*Muqimiy, satire, Tanobchilar, economic life, social inequality, corruption, peasant life, Sayohatnoma.*

**KIRISH**

XIX asr oxiri o'zbek adabiyotida xalq hayotini haqqoniy tasvirlashga alohida e'tibor berilgan davr hisoblanadi. Bu davr ijodkorlari orasida Muqimiy o'zining xalqchil ruhda

asarlari, hajviy yoʻnalishdagi ijodi va jamiyatdagi muammolarni ochiq tasvirlagani bilan ajralib turadi. Shoir asarlarida oddiy xalqning hayoti, iqtisodiy qiyinchiliklar, amaldorlarning adolatsizligi hamda jamiyatdagi tabaqalanish masalalari muhim oʻrin egallaydi. Muqimiy nafaqat shoir, balki oʻz davrining ijtimoiy muammolariga befarq boʻlmagan maʼrifatparvar ijodkor sifatida ham namoyon boʻladi. U hajv orqali jamiyatdagi kamchiliklarni koʻrsatib, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilgan.

Muhammad Aminxoʻja Mirzaxoʻja oʻgʻli Muqimiy 1850-yilda Qoʻqon shahrida tavallud topgan. U dastlab eski maktabda savod chiqargan, keyinchalik Qoʻqondagi “Hokim oyim” madrasasida tahsil olgan. Soʻngra Buxoroda ilm olib, yana Qoʻqonga qaytgan. Muqimiy bir muddat yer oʻlchash mahkamasida ishlagan. Aynan shu faoliyati davomida u qishloq aholisi hayoti, dehqonlarning iqtisodiy qiyinchiliklari va amaldorlarning noqonuniy ishlari bilan yaqindan tanishgan. Bu kuzatishlar keyinchalik uning asarlarida chuqur aks etadi.

Shoirning “Tanobchilar”, “Moskovchi boy”, “Voqeayi koʻr Ashurboy hoji” kabi hajviy asarlari oʻzbek adabiyotida ijtimoiy hajviyotning rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Muqimiy asarlarining asosiy qahramonlari oddiy xalq vakillari boʻlib, ular orqali jamiyatdagi adolatsizliklar ochib beriladi.

Muqimiyning mashhur hajviy asarlaridan biri “Tanobchilar” hisoblanadi. Ushbu asarda yer oʻlchovchi amaldorlarning noqonuniy faoliyati tasvirlanadi. Tanobchilar yerlarni ataylab notoʻgʻri oʻlchab, oddiy dehqonlardan ortiqcha soliq undiradi. Natijada xalq iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qoladi.

Shoir ushbu asar orqali korrupsiya va iqtisodiy adolatsizlikni keskin tanqid qiladi. Asarda amaldorlarning mansabidan foydalanib boylik orttirishi, oddiy xalq esa mehnat qilsa-da, kambagʻallikdan chiqolmayotgani real tasvirlangan.

“Tanobchilar” asarida qoʻrqitish, bosim oʻtkazish va zoʻravonlik orqali xalqni boʻysundirish holatlari ham aks ettiriladi. Bu esa oʻsha davrdagi boshqaruv tizimining naqadar adolatsiz boʻlganini koʻrsatadi. Muqimiy hajv vositasida juda jiddiy iqtisodiy muammolarni xalqchil usulda ochib bera olgan.

Muqimiy ijodida jamiyatdagi tabaqalanish masalasi alohida oʻrin egallaydi. Shoir bir tomondan boy va mansabdor tabaqani, ikkinchi tomondan esa oddiy mehnatkash xalqni tasvirlaydi. Asarlarda xalqning mashaqqatli hayoti, ogʻir mehnati va iqtisodiy qiyinchiliklari yaqqol koʻrinadi.

Muqimiy fikricha, xalq mehnat qiladi, biroq uning mehnati samarasidan boshqa tabaqa foydalanadi. Bu holat iqtisodiy tengsizlikning asosiy koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Shoir shu orqali jamiyatda adolat va halollik zarurligini ilgari suradi.

Shuningdek, Muqimiy hunarmandlar va dehqonlar hayotini ham chuqur tasvirlaydi. Ularning turmush tarzi orqali davrning iqtisodiy muammolari ochib beriladi.

Muqimiyning “Sayohatnoma” asari ham shoir ijodida muhim oʻrin tutadi. Ushbu asarda Fargʻona vodiysi boʻylab qilingan sayohatlar davomida uchragan qishloqlar, odamlar hayoti va turmush sharoitlari tasvirlangan.

Shoir ayrim hududlarning iqtisodiy jihatdan qoloq holatini, xalqning og‘ir turmushini va yashashdagi muammolarni bevosita kuzatishlar asosida bayon qiladi. Shu sababli “Sayohatnoma” nafaqat adabiy, balki tarixiy va iqtisodiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy ijodi XIX asr oxiridagi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shoir o‘z asarlarida xalqning og‘ir turmushi, korrupsiya, iqtisodiy tengsizlik va amaldorlar zulmini haqqoniy tasvirlagan. Ayniqsa, “Tanobchilar” asari orqali iqtisodiy adolatsizlik va mansabdorlarning noqonuniy faoliyati keskin tanqid qilinadi. Muqimiy asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, adolat, halollik va xalq manfaatlarini himoya qilish g‘oyalarini targ‘ib etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardaev Q. Muqimiyning uch hajviyasi. – Toshkent, 2015.
2. Pardaev Q. Muqimiy asarlarida zamon ruhi. – Toshkent, 2017.
3. Maxmudov N.M., Avazov N.R. Muqimiyning iqtisodiy qarashlari. – Toshkent: “IQTISODIYOT”, 2021.
4. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. “Muqimiy” maqolasi.
5. ZiyozUZ elektron kutubxonasi
6. Sputnik O‘zbekiston
7. President.uz rasmiy sayti